



TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUV DARAJASINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

THEORETICAL FOUNDATIONS OF INCREASING THE CAPITALIZATION LEVEL OF COMMERCIAL BANKS

¹**Qurbonov Rufat
Baxtiyorovich**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Bank hisobi va auditi" kafedrası professori, PhD.

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirishning xavfsiz va samarali yo'llari yoritilgan. Shuningdek, respublikamiz tijorat banklari kapitalining hajmi va dinamikasi, ustav kapitalining o'z mablag'lari tarkibidagi ulushi hamda ularning moliyaviy barqarorlikka ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida bank kapitalining yetarlilik darajasi, kapitallashuv ko'rsatkichlarining o'zgarish tendensiyalari va ularni rivojlantirish omillari baholangan. Bundan tashqari, tijorat banklari kapital bazasini mustahkamlash, investitsion jozibadorligini oshirish va xalqaro moliyaviy standartlar talablariga moslashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar hamda takliflar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article examines safe and effective ways to increase the capitalization level of commercial banks. It also analyzes the volume and dynamics of the capital of commercial banks in the Republic, the share of authorized capital in their equity, and their impact on financial stability. The study evaluates the adequacy of bank capital, trends in capitalization indicators, and the factors influencing their development. Furthermore, scientific and practical conclusions and recommendations are proposed to strengthen the capital base of commercial banks, enhance their investment attractiveness, and align their operations with international financial standards.

Kalit so'zlar: Keywords:

- ❖ *tijorat banklari, kapitallashuv darajasi, resurs bazasi, kapital, ustav kapitali, kapital yetarliligi, moliyaviy barqarorlik.*
- ❖ *commercial banks, capitalization level, resource base, capital, authorized capital, capital adequacy, financial stability.*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida — banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchligini mustahkamlash masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yilgan [1]. Mazkur vazifalarni o'z vaqtida va samarali bajarish

maqsadida O'zbekiston Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni bilan 2025-yilga qadar banklar ustav kapitalining eng kam miqdorini 500 mlrd so'mgacha bosqichma-bosqich oshirish belgilangan [2]. Ayni vaqtda, respublikamiz tijorat banklari kapitallashuv

darajasini oshirish maqsadida yechimini topish lozim bo'lgan bir qator masalalar mavjud. Xususan, tijorat banklarining kapitallashuv darajasi sustligi, davlat budjeti mablag'lari hisobidan oxirgi yillarda katta miqdorda mablag'lar yo'naltirilishi, fond bozorida tijorat banklarining emitent hamda investor sifatidagi faol emasligi, o'z mijozlariga yetarli darajada sifatli xizmat ko'rsata olmayotganligi, resurslar bazasining zaifligi, bank kapitalining YaIMdagi ulushini pastligi va boshqa shu kabi muammolar mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Mavjud iqtisodiy adabiyotlarda "Kapitallashuv darajasi" tushunchasi, uni oshirish masalalari xorijlik olimlar, mutaxassislar tomonidan o'rganilgan va tegishli ta'riflar berilgan. Dastavval A.B.Borisovning "Katta iqtisodiy lug'ati"da – "Kapitalizatsiya bu bankning qimmatbaho qog'ozlarini muomalaga chiqarib, sotishdan tushgan va daromadidan ma'lum zaxiralar tashkil etish uchun ajratilgan mablag'lar hisobiga bank kapitalining o'sgan qismi tushuniladi" [3]. A. S. Klimov tadqiqotlarida "kapitallashuv" tushunchasiga, "kredit tashkiloti kapitalining bozor qiymati haqida aksiyalar sonining ularning bozor qiymatiga ko'paytmasi sifatida" - deb ta'rif berilgan [4].

Professor A.Omonov o'zining "Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari" mavzusidagi iqtisod fanlari doktorlik dissertatsiyada tijorat banklarning kapitallashuv darajasiga ta'sir etuvchi omillarni batafsil tasniflab berganlar [5]. Aynan I. B. Tursunov o'zining tadqiqot ishida aniq bir bankning kapitallashuvi ko'p jihatdan xususiy kapitalining mutlaq hajmi bilan belgilanishini asoslab bergan [6].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolani tayyorlashda tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha amaliy ma'lumotlar tahlil qilindi va barcha foydalanilgan ma'lumotlar amaldagi qonun hujjatlari va Markaziy bankning statistik

ko'rsatkichlari asosida muallif tomonidan tadqiq qilindi. Maqolada guruhlashtirish, taqqoslash, tizimli yondashuv, va tarkibiy tahlil usullari qo'llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahon nazariyasi va amaliyotida kapitallashuv atamasini talqin qilishning ikkita yo'nalishi ajratiladi [4].

Birinchi yo'nalish fond bozori bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning doirasida bozor kapitallashuvi kompaniya qimmatli qog'ozlarining fond birjasidagi kotirovkalar bo'yicha qiymati sifatida qaraladi. Ikkinchi yo'nalish kapitallashuvni foyda yo'li bilan kapitalni ko'paytirish jarayoni sifatida belgilaydi. Ushbu yo'nalish kapitallashuvni moliyaviy institutning o'z xususiy kapitali miqdori bilan, shuningdek kapitalning hammaga ma'lum xalqaro «Bazel» va «Bazel I» kelishuvlarga muvofiq yetarlilik darajasi bilan bog'laydi. Global inqiroz oqibatlarini hisobga olgan holda Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi 2010-yil sentabrda yangi «Bazel III» standartini tasdiqladi, unda moliyaviy institutlar kapitaliga talablar yanada keskinlashtirildi. Yangi qoidalarga mos kelish uchun banklar birinchi darajadagi bazaviy kapitalning yetarlilik koeffitsientini ikki foizdan 2019-yilga kelib 4,5 foizgacha oshirishdi.

Har bir bank aktivlarning 2,5 foizi miqdorida maxsus bufer kapitalini tashkil qilishlari darkor. Yangi talablar bo'yicha bazaviy kapitalga umumiy minimal talablar 7 foizni tashkil etadi. Birinchi darajadagi kapitalning yetarlilik normativi 4 dan 6 foizgacha oshirilgan.

Ta'kidlash joizki, yangi qoidalarga muvofiq tijorat banklari kapitali oddiy aksiya va taqsimlanmagan foydaning 50 foizidan kam bo'lmasligi kerak. Bundan tashqari, Bazel qo'mitasi qarz kapitalining yuqori darajasini kapitalning 25 baravaridan oshmaydigan miqdorda belgilashni taklif qilmoqda. Qo'mita qarorlari nazorat organlari uchun tavsiya

tusiga egaligiga qaramay, aksariyat rivojlangan mamlakatlar banklarga talablar tizimini shakllantirishda bu tavsiyalarni deyarli to‘laligicha bajarmoqda.

Bank kapitalining yetariligidini aniqlash muammosi uzoq vaqtdan beri ilmiy tadqiqotlar predmeti bo‘lib kelmoqda hamda banklar va boshqaruv organlari o‘rtasidagi baxs-munozaraga sabab bo‘lmoqda. Banklar foydani ko‘paytirish va aktivlar o‘shishini ta‘minlash uchun minimal kapitaldan foydalanishni afzal ko‘rsalar, nazorat organlari bankrotlik havfini kamaytirish uchun ko‘proq kapitalni talab qilmoqdalar. Bir vaqtning o‘zida, bankrotlik boshqaruvning yomonligidan kelib chiqadi,

voshi boshqariladigan banklar past kapital me‘yori bilan ham yaxshi ishlay olishi mumkin, degan fikrlar bildirilmoqda. Jahon amaliyotida ustav kapitali miqdori qonun bilan cheklanmaydi, shu bilan birga, bank tizimining barqarorligini ta‘minlash uchun tartibga soluvchi organ tijorat banklari ustav kapitalining minimal miqdorini belgilaydi. Bank kapitali minimal darajasini belgilashga yagona yondashuv yo‘q, - bunga tarixiy, huquqiy va iqtisodiy omillar sabab bo‘lib, bank faoliyatini litsenziyalash amaliyoti turli mamlakatlarda turlichadir. Bank kapitaliga minimal talab qo‘yilgan mamlakatlarga ko‘proq Osiyo mamlakatlari kiradi (1-jadval).

1-jadval

Banklar xususiy kapitaliga eng yuqori talablar qo‘yilgan mamlakatlar (01.01.2020-y. holatiga, mln. yevro)

Mamlakat	Milliy banklar	Xorijiy banklar	Xorijiy banklar filiallari
Singapur	722,8	722,8	96,4
Malayziya	392,6	58,9	-
Indoneziya	211,8	211,8	211,8
Tayvan	204,9	204,9	3,1
baxrayn	175,4	66,0	-
Kuvayt	173,5	173,5	34,7
Nigeriya	111,7	111,7	111,7
Tailand	99,6	79,2	
Isroil	99,2	99,2	
Xitoy	96,8	29,0	

Bank kapitali minimal darajasini standartlashtirishda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari yetakchilikni qo‘lga kiritgan, u yerda xususiy kapitalning umumiy me‘yori qabul qilingan bo‘lib, u 5 mln. yevrodan kam bo‘lmagan miqdorni tashkil qiladi. Yevropa standartining tarqalishi shunga olib keldiki, jahonning aksariyat mamlakatlari minimal kapitalni 1 dan 5 mln. yevrogacha bo‘lgan chegarada belgilamoqda.

Umuman olganda, kapitallashuv darajasini tartibga solish bo‘yicha xorij tajribasi bir qator muhim xulosalarga olib keladi. Birinchidan, banklarning minimal kapitaliga tegishli litsenzion me‘yorlar Markaziy banking

yoki moliyaviy megaregulyatorning mutloq vakolatiga kiradi. Ikkinchidan, 50 foiz hollarda pul talabnomalarining qadsizlanishini oldini olish maqsadida litsenziyalashning miqdoriy normalari yevroda belgilangan. Uchinchidan, mamlakatda kredit tashkilotlarining bir nechta turi faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, ularga nisbatan tabaqalashtirilgan me‘yorlar qo‘llaniladi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda respublika banklari kapitallashuvini oshirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qator Farmonlari va Qarorlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari ustav kapitalini minimal miqdoriga qo'yilgan talablar

Yillar	Aktiyadorlik tijorat banklari uchun	Chet el kapitali ishtirokida ochilayotgan banklar uchun	Xususiy banklar uchun
1 yanvar 1998 y.	1,5 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	0,3 mln AQSh dol. ekv. so'mda
1 yanvar 1999 y.	2,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	0,3 mln AQSh dol. ekv. so'mda
1 yanvar 2000 y.	2,5 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	0,3 mln AQSh dol. ekv. so'mda
1 yanvar 2002 y.	2,5 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	1,25 mln AQSh dol. ekv. so'mda
1 yanvar 2005 y.	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda	2,5 mln AQSh dol. ekv. so'mda
1 yanvar 2008 y.	5,0 mln.yevro ekv. so'mda	5,0 mln.yevro ekv. so'mda	2,5 mln.yevro ekv. so'mda
1 yanvar 2011 y.	10,0 mln.yevro ekv. so'mda	10,0 mln.yevro ekv. so'mda	5,0 mln.yevro ekv. so'mda
1 oktyabr 2017	100 mlrd. so'm		
1 sentyabr 2023	200 mlrd. so'm		
1 aprel 2024	350 mlrd. so'm		
1 yanvar 2025	500 mlrd. so'm		

*Manba: www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

Bizga ma'lumki, 2023-yil 1-sentabrdan e'tiboran bank ustav kapitalining eng kam miqdori 200 mlrd. so'mni tashkil etishi kerak [12]. Bu bo'yisha qonun loyihasi 2022-yil oktyabrda qabul qilingan va qonun aprelda kushga kirgan. Ya'ni Markaziy bank "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, bank ustav kapitalining eng kam miqdori 2023-yil 1-sentabrdan boshlab ikki yuz milliard so'mni va bosqishma-bosqish 2025-yil 1-yanvardan besh yuz milliard so'mni tashkil etishi lozimligi borasida qat'iy va sobit harakatlarni amalga oshirishini ma'lum qilmoqda. Ammo, hozirgi paytda barsha tijorat banklar ham belgilangan ustav kapitallarining minimal miqdorlarini to'liq shakllantira olgani yo'q.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tijorat banklari o'zlarining ustav kapitalini oshirish

imkoniyatlarini izlab topishlari kerak. Aks holda, banklar Prezidentimizning 2020-yil 12-maydagi PQ-5992-sonli Farmoni to'liq bajarilmasligiga olib keladi. Bu esa, tijorat banklari faoliyatini davom ettirishini so'roq ostida qoldiradi.

Bundan ko'rinadiki, tijorat banklarimiz oz muddat ishida ustav kapitalini miqdorini keskin oshirishlari kerak. Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan chiqariladigan aksiyalarni joylashtirish bilan bog'liq muammolar mavjud. Banklar tomonidan taklif etilayotgan dividendlarning o'rtacha yillik stavkasi banklardagi depozit stavkalari bilan deyarli bir hil, bundan tashqari ular o'zgaruvchan bo'lib, bank faoliyati bilan bog'liq muammolar natijasida dividendlar miqdori kamayib ketishi mumkin. Yana tijorat banklarning kapitali tarkibida bo'lgan emission daromadlar deyarli sezilmaydigan darajada. Bu holat banklarimiz aksiyalari qimmatbaho

qog'ozlar bozorida deyarli nominal bahosi miqdorida sotiladi. Ularning bozor (real) bahosiga ta'sir etuvchi omillar yo'qligicha qolmoqda. Olib borilgan tahlil quyidagi xulosalarga olib keldi:

❖ O'zbekistonda banklar kapitallashuvi darajasini ancha oshirish imkonini beradigan me'yoriy-qonunchilik bazasi ishlab chiqilgan va qabul qilingan;

❖ respublikamiz banklarining bozor kapitallashuvi qiymati ularning umumiy kapitalidan deyarli 5 baravarga kam.

Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan quyidagi takliflar keltirildi:

❖ tijorat banklarida kapital yetarliligini baholashning riskka asoslangan modelini joriy etish maqsadga muvofiq. Amaldagi amaliyotda kapital yetarliligi asosan umumiy prudensial me'yorlar asosida baholanmoqda. Shu sababli har bir bankning aktivlari sifati, kredit portfeli tarkibi va risk darajasidan kelib chiqib kapitalga bo'lgan ehtiyojni aniqlovchi ICAAP (Internal Capital Adequacy Assessment Process) tizimini joriy etish zarur. Mazkur tizim bank kapitalini iqtisodiy risklar bilan muvofiqlashtirish imkonini beradi.

❖ tijorat banklarining kapital bazasini mustahkamlash maqsadida sof foydani kapitalizatsiya qilish ulushini oshirish lozim. Buning uchun dividend siyosatini qayta ko'rib chiqish va foydaning ma'lum qismini majburiy ravishda kapitalni ko'paytirishga yo'naltirish mexanizmini takomillashtirish tavsiya etiladi. Natijada banklarning ichki manbalar hisobidan kapitallashuv darajasi oshadi.

❖ banklarning ustav kapitalini ko'paytirishda fond bozori instrumentlaridan foydalanish amaliyotini kengaytirish zarur. Xususan, IPO va SPO mexanizmlarini rivojlantirish orqali mahalliy va xorijiy investorlarning mablag'larini jalb qilish banklar kapitalining barqaror o'sishini ta'minlaydi. Bu esa davlat mablag'lariga qaramlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

❖ tijorat banklarida subordinatsiyalangan obligatsiyalar emissiyasini kengaytirish tavsiya etiladi. Mazkur instrumentlar uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini berib, ikkinchi darajali kapital hajmini oshirishga xizmat qiladi. Natijada banklarning kapital yetarliligi ko'rsatkichlari yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni.

3. Большой экономический словарь. А.Б.Борисов. Издание второе М. «Книжный мир» 2006 г. С-300.

4. Климов А.С.. Капитализация коммерческих банков: мировая практика и ее использование российскими банковскими структурами: диссертация. кандидата экономических наук: Москва, 2008.- 180.

5. Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: 2008, BMA, 36 b.

6. Tursunov I. B. Tijorat banki kapitallashuviga korporativ boshqaruv ta'sirini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent 2021. 56 b.